HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM PEDAGOGLARIDA KASBIY QONIQISH VA MEHNAT MOTIVATSIYASINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Karimova Nigora Gopirjon qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Psixologiya" yo'nalishi 1-kurs magistratura talabasi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23362974

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabdan tashqari ta'lim pedagoglarida kasbiy qoniqish va mehnat motivatsiyasining o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy qoniqish hamda motivatsiyaning nazariy asoslari yoritilib, ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Shuningdek, O'zbekistonda maktabdan tashqari ta'lim tizimida pedagoglarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, pedagoglarning kasbiy qoniqishi va mehnat motivatsiyasini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: maktabdan tashqari ta'lim, pedagog, kasbiy qoniqish, mehnat motivatsiyasi, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kasbiy rivojlanish, pedagogik faoliyat, ta'lim sifati, kasbiy farovonlik.

Аннотация. В данной статье проанализирована взаимосвязь профессиональной удовлетворенности и трудовой мотивации педагогов внешкольного образования. Рассмотрены теоретические основы профессиональной удовлетворенности и мотивации, а также факторы, влияющие на их формирование. Кроме того, проанализированы проводимые в Узбекистане реформы по поддержке педагогов внешкольного образования и зарубежный опыт в данной сфере. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по повышению профессиональной удовлетворенности и трудовой мотивации педагогов.
Ключевые слова: внешкольное образование, педагог, профессиональная удовлетворенность, трудовая мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, профессиональное развитие, педагогическая деятельность, качество образования, профессиональное благополучие.

Abstract. This article examines the relationship between job satisfaction and work motivation among extracurricular education teachers. The study highlights the theoretical foundations of job satisfaction and motivation and identifies the factors influencing their development. It also analyzes ongoing reforms in Uzbekistan aimed at supporting extracurricular education teachers, as well as relevant international practices. Based on the findings, recommendations are proposed to enhance teachers' job satisfaction and work motivation.
Keywords: extracurricular education, teacher, job satisfaction, work motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, professional development, teaching activity, educational quality, professional well-being.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning ijodiy, intellektual va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar maktabdan tashqari ta'lim tizimining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Mazkur tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan ularning mehnat

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

faoliyatidan qoniqish darajasi va motivatsion holatiga bog‘liqdir. Chunki pedagogning o‘z kasbidan mamnunligi, mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabati va kasbiy rivojlanishga intilishi ta’lim sifati hamda tarbiyaviy jarayon samaradorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida kasbiy qoniqish hamda mehnat motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib kelinmoqda. Tadqiqotchilar kasbiy qoniqishning yuqori darajasi pedagoglarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, innovatsion faoliyatga tayyorlik va kasbiy barqarorlikni kuchaytirishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, motivatsiyaning pasayishi ish samaradorligining kamayishi, emotsional charchash va kasbiy kuyish sindromining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari pedagoglarining faoliyati umumta’lim maktabi o‘qituvchilaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Ular o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va iste’dodlarini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy faoliyatni tashkil etadilar. Shu sababli ushbu pedagoglarning kasbiy qoniqishi va motivatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Kasbiy qoniqish shaxsning o‘z mehnat faoliyatiga, ish sharoitlariga, kasbiy mavqeiga va erishgan natijalariga nisbatan ijobiy baholovchi munosabatini ifodalaydi. Psixologiyada kasbiy qoniqish mehnat faoliyati natijasida yuzaga keladigan hissiy holat sifatida talqin qilinadi.

Mehnat motivatsiyasi esa shaxsni kasbiy faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar majmui hisoblanadi. Motivatsiya pedagogning maqsad sari intilishi, faoliyatga qiziqishi va o‘z imkoniyatlarini namoyon etishga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiradi.

Amerikalik olim Frederick Herzberg tomonidan ishlab chiqilgan ikki omilli motivatsiya nazariyasiga ko‘ra, kasbiy qoniqishga ta’sir qiluvchi omillar ikki guruhga bo‘linadi:

1-jadval

Omillar guruhi	**Mazmuni**	**Pedagog faoliyatidagi namoyon bo‘lishi**
Gigiyenik omillar	Xodimning ishidan qoniqmasligining oldini oluvchi omillar. Ular mavjud bo‘lmasa, norozilik kuchayadi, ammo mavjudligi har doim ham yuqori motivatsiyani ta’minlamaydi.	Ish haqi, mehnat sharoiti, rahbariyat bilan munosabatlar, tashkilot siyosati, ish xavfsizligi, ish yuklamasi.
Motivator omillar	Xodimning mehnat faoliyatidan qoniqishini va ichki motivatsiyasini oshiruvchi omillar.	Kasbiy yutuqlar, pedagogik faoliyatning tan olinishi, mukofotlar, mas’uliyatning oshirilishi, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, ijodiy erkinlik.

Herzberg nazariyasiga ko‘ra, aynan motivator omillar pedagoglarda yuqori darajadagi kasbiy qoniqishni shakllantiradi[4].

Abraham Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida esa insonning kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasi fiziologik ehtiyojlardan boshlab o‘zini namoyon qilish ehtiyojigacha bo‘lgan bosqichlarda rivojlanishi ta’kidlanadi. Maktabdan tashqari ta’lim pedagoglari uchun ayniqsa hurmat qozonish va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish ehtiyojlari muhim ahamiyat kasb etadi[5].

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Ehtiyojlar bosqichi	Mazmuni	Pedagog faoliyatidagi namoyon bo‘lishi
1. Fiziologik ehtiyojlar	Inson hayoti uchun zarur bo‘lgan asosiy ehtiyojlar.	Yetarli ish haqi, dam olish va mehnat faoliyatini olib borish uchun zarur sharoitlar.
2. Xavfsizlik ehtiyoji	Barqarorlik va himoyalanganlikka bo‘lgan ehtiyoj.	Ish o‘rnining barqarorligi, ijtimoiy himoya, mehnat qonunchiligi kafolatlari.
3. Ijtimoiy ehtiyojlar	Jamoaga mansublik va muloqot ehtiyoji.	Hamkasblar bilan samarali hamkorlik, sog‘lom psixologik muhit, jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lish.
4. Hurmat va e’tirof ehtiyoji	Boshqalar tomonidan qadrlanish va hurmat qozonish ehtiyoji.	Pedagogning yutuqlarini e’tirof etish, mukofotlash, kasbiy obro‘ va nufuz.
5. O‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji	Shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga intilishi.	Innovatsion faoliyat, ijodiy loyihalar, ilmiy izlanishlar, kasbiy mahoratni muntazam rivojlantirish.

2-jadval

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida faoliyatning ko‘proq ijodiy xarakterga ega ekanligi pedagoglarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, moddiy va tashkiliy rag‘batlarning yetarli bo‘lmasligi kasbiy qoniqish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun ijodiy erkinlik, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatish muhim motivatsion omillar hisoblanadi.

Tahlillar natijasida kasbiy qoniqish va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama xarakterga ega ekanligi kuzatiladi. Bir tomondan motivatsiya kasbiy qoniqishni shakllantirsa, ikkinchi tomondan kasbiy qoniqish motivatsiyaning barqarorligini ta’minlaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi pedagoglarning kasbiy qoniqishi va motivatsiyasini oshirish ta’lim sifati uchun muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Finlandiyada pedagoglarga yuqori darajadagi kasbiy mustaqillik berilgan. O‘qituvchi va pedagoglarning kasbiy faoliyatiga ortiqcha ma’muriy aralashuvning kamaytirilishi ularning kasbiy qoniqishini oshiradi. Pedagog kasbi jamiyatda yuqori nufuzga ega bo‘lib, bu holat ichki motivatsiyani mustahkamlaydi.

Singapurda pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga katta e’tibor qaratiladi. Har bir pedagog uchun individual rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Kasbiy o‘sish imkoniyatlarining mavjudligi motivatsiyani oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Janubiy Koreyada pedagoglarning mehnatini rag‘batlantirishning samarali tizimi shakllantirilgan. Kasbiy yutuqlar muntazam baholanadi va moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantiriladi. Bu esa pedagoglarda yuqori darajadagi mehnat motivatsiyasini ta’minlaydi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Kanadada pedagoglarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar faol joriy etilgan. Stressni boshqarish, kasbiy kuyishning oldini olish va sog‘lom psixologik muhit yaratish kasbiy qoniqishni oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda

O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, maktabdan tashqari ta’lim tizimini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda pedagog xodimlarning kasbiy motivatsiyasini oshirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, malakasini oshirish va mehnatini munosib rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Strategiyada ta’lim sifati va pedagoglar salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, pedagog kadrlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qayd etilgan[1].

Maktabdan tashqari ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirish maqsadida pedagoglar uchun malaka oshirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish imkoniyatlari kengaytirilmoqda[3]. Jumladan, Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan “Barkamol avlod” bolalar maktablari o‘qituvchi-trenerlarini xorijiy davlatlarga stajirovka va malaka oshirish kurslariga yuborish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Pedagoglarning mehnat motivatsiyasini kuchaytirishda moddiy rag‘batlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari xodimlarining bazaviy tarif stavkalarini oshirish, to‘garak rahbarlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro tanlov va musobaqalarda muvaffaqiyat qozongan pedagoglar va o‘quvchilarni rag‘batlantirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini zamonaviy jihozlar, robototexnika vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion o‘quv uskunalari bilan ta’minlash bo‘yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada pedagoglarning ijodiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlari kengayib, ularning kasbiy qoniqish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Biroq olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, hududlar kesimida moddiy-texnik bazaning rivojlanish darajasidagi tafovutlar, ayrim pedagoglarda kasbiy kuyish holatlarining uchrashi, mehnat yuklamasining yuqoriligi hamda rag‘batlantirish mexanizmlarining barcha hududlarda bir xil samaradorlikda ishlamayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli pedagoglarning kasbiy qoniqishi va mehnat motivatsiyasini muntazam monitoring qilish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish hamda kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyalarini joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Maktabdan tashqari ta’lim pedagoglarida kasbiy qoniqish va mehnat motivatsiyasi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan psixologik kategoriyalar hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning ichki va tashqi motivatsiyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning kasbiy qoniqishi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Kasbiy qoniqish esa o‘z navbatida mehnat samaradorligi, innovatsion faoliyatga tayyorlik va kasbiy barqarorlikning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Maktabdan tashqari ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy qoniqishi va motivatsiyasini oshirish ta’lim sifati hamda yoshlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida maktabdan tashqari ta’lim pedagoglarining kasbiy qoniqishi va mehnat motivatsiyasini oshirish maqsadida bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, pedagoglarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularning mehnatini munosib baholash va erishgan yutuqlarini e’tirof etish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida muntazam malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar va amaliy mashg‘ulotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Pedagoglarning tashabbuskorligini rag‘batlantirish, innovatsion g‘oyalari va ijodiy loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, pedagoglarning emotsional holatini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy kuyish sindromining oldini olishga qaratilgan profilaktik dasturlarni joriy etish zarur.

Pedagoglarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ularning yutuqlarini muntazam monitoring qilish, baholash va rag‘batlantirish tizimini yaratish lozim. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning maktabdan tashqari ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish hamda ularni milliy ta’lim tizimi sharoitlariga moslashtirgan holda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, maktabdan tashqari ta’lim pedagoglarining kasbiy qoniqishi va mehnat motivatsiyasi darajasini muntazam ravishda psixologik diagnostika vositalari orqali baholab borish, aniqlangan muammolar yuzasidan manzilli choralar ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi maktabdan tashqari ta’lim pedagoglarining kasbiy qoniqishi va mehnat motivatsiyasini oshirishga, ularning kasbiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga hamda ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentyabrdagi PF–5847-son Farmoni. “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Herzberg, F. (1968). One More Time: How Do You Motivate Employees? Harvard Business Review, 46(1), 53–62.
5. Maslou, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.